

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika fakulteti

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrası

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta'lim yo`nalishi

3–kurs 2 guruh talabasi Bobomurodova Hurriyatning

Qalam tasvirda nuroniy chol portreti mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

Shovdirov S.A.

Navoiy – 2015

« T A S D I Q L A Y M A N »
Kafedra mudiri _____
« ____ » _____ **20__ y.**

K U R S (i s h i) L O Y I H A S I

_____ fan bo`yicha
Guruh _____ talaba _____
Rahbar _____

T O P S H I R I Q

1. Ishlanadigan loyiha mavzusi _____

2. Boshlang`ich ma`lumotlar _____

3. Qo`llanmalar _____

4. Chizmalı qismning tuzilishi _____
1) _____
2) _____
3) _____
4) _____
5. Yozma qismining tuzilishi _____

6. Qo`shimcha vazifa va ko`rsatmalar _____
7. Kurs (ishi) loyihasini bajarish rejasi

Rahbar _____

TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

TAQRIZI

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

Kurs ishining yakuniy natijalari

Uslubiy qism	Ko`rgazmali qurollar	Adabiyotlar	Rasmiylashtirish	Himoyachi	Jami ball

Rahbar

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasining

20__-yil _____dagi ____-sonli yig`lish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar:

K U N T A R T I B I

2009–2010–o`quv _____ yilida
_____ fakulteti
_____ ta`lim yo`nalishi talabasi
_____ ning
kurs ishi mavzusini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: katta o`qituvchi. S.A. Shovdirov so`zga chiqib kafedra a`zolarini kurs ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

_____ nomli kurs ishining mavzusi qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib _____ belgilansin.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi. S.A. Shovdirov

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasining
20__-yil _____dagi ____-sonli majlis qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar:

K U N T A R T I B I

3–kurs talabalarining kurs ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: katta o`qituvchi S.A. Shovdirov so`zga chiqib, kafedra a`zolarining qalamtasvir rangtasvir va tasviriy san`at o`qitish metodikasi hamda muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi fani bo`yicha tayyorlagan kurs ishi haqida to`xtalib, ishning to`liq talab asosida tayyorlanganligini, kurs ishining xulosasi, zaruriy hujjatlari rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Shundan so`ng talaba: _____

O`z mavzusi bo`yicha uning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o`zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Kurs ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to`liq javob qaytardi.

MAJLIS QAROR QILDI:

1. Talaba: _____ ning

_____ mavzusidagi kurs ishi tugallangan ish deb hisoblansin.

2. Kurs ish himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi S.A. Shovdirov

MUNDARIJA

KIRISH.....

I–BOB. QALAMTASVIR HAQIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR

1.1. Qalamtasvir hamda uning maqsad–vazifalari.....

1.2. Tasvirlashning asosiy qonun–qoidalari.....

II–BOB. Tasviriy san`atning janrlari.....

2.1. Portret janri.....

2.2. Nurniy chol portretini chizish.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga, kasb–hunar ko'nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona echimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb–hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq mantiqiy mushohada qilish tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir" [4, 3]. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim–tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni" hayotga tadbiiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali, o'quvchilarning iste'dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va

rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim–tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: “Biron–bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi”¹, – deb alohida ta'kidlaydi.

Kurs ishining maqsadi –

Men o'z kurs ishimda portret janri haqida umumiy tushuncha berishni va nuroniy chol portretini ishlashni o'z oldimga maqsad qilib qo'yaman.

Kurs ishining vazifasi:

– Portret janri va qalamtasvir haqida bilimimni rivojlantirish.

Kurs ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami ____ sahifani tashkil etadi.

Kurs ishining ilmiy yangiligi:

Nuroniy chol portretini qalamda yaxshi ishlash uchun ilmiy–nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

I–BOB. QALAMTASVIR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida ijobiy natijalar bermoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**" muhim tarixiy hujjat bo'lib, unda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bu tizirhni dunyoning ilg'or, demokratik davlatlari darajasiga etkazish va yosh kadrlarni yuksak ma'naviy–axloqiy ruhda, chuqur bilim egasi qilib tarbiyalash maqsadi qo'yilgan.

Keyingi vaqtda boshqa sohalarda bo'lgani kabi, oliy ta'lim tizimida ham ko'pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining badiiy grafika fakultetlarida yosh pedagog–rassomlarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, yangi o'quv rejalari, dasturlari tuzilmoqda, o'quv qo'llanma, darslik va metodik tavsiyalar yaratilmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqihnoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga yetkazish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yoshlarni harkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi, pedagog, olim varassomlar zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Qalamtasvir predmeti badiiy grafika fakultetlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Qalamtasvir borasida yetarli bilim va malakani egallamay turib, talaba kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa mutaxassislik fanlarini yuqori darajada o'zlashtira olmaydi

1.1. Qalamtasvir hamda uning maqsad–vazifalari

Qalamtasvir– barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarini yaratishda ushbu qoralamalar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinlarga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib–kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinchi** **"Rangtasvir qonunlari"** nomli asarida ta'kidlaganidek, *yoshlar o'zlarini ilm–fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir bakalavriat talabalarining, I–IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g'oyat muhim. Bu bilim bo'lajak pedagoglarning institutni tugatgandan so'nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko'nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san'ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.

Bo'lajak pedagog–iassomlarni buyuk rassomlar, tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati, bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish



1-rasm. Rembrandt avtoportretidan nusxa.
4-kurs talabasining ishidan namuna.

hamda ulardan nusxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega. 1–rasm. Qalamtasvir mashg'udotlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.

2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvini metodik ketma–ketlikda **analiz va sintez** qilib to'g'ri bajarish. 2– rasm.

Bu ko'nikma va malakalar talabaning, oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olishi vaqtida, o'quv mashqlarini bajarishi orqali rivojlanadi va takomillashib boradi.



1.2. Тасвирлашнинг асосий қонун–қоидалари.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda, qalamtasvir mashg'ulotlarining, amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi – perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash – fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: “Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan–bu yergacha”¹.

So'z – tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib, to'g'ri chizishda eng muhim jihatlardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash odatini shakllantiradi.



2-rasm.

Ma'lumki, tasviriy san'at atrof-muhitni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o'rganiladi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni qanchalik ko'p sevsa va kuzatib o'rgansa, u tasvirlash sohasida shunchalik yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Alberti va Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini aniq o'lchamlarda o'rganib, o'z tasvirlarida amalda qo'llaganlar. (3–rasm)


Ular inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilish xususiyatlarini, xuddi anatom tadqiqotchidek, asosli o'rganganlar va natijada jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar.

Qalamtasvir mashg'ulotlarida buyumlarning hajmini to'g'ri va haqqoniy tasvirlash, oddiy qalamda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o'laroq, bu vazifa ancha mushkul bo'lib, talabalardan qalamtasvir borasida ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talabalar turli hajm va shaklga ega buyumlarning yorug' va soyalarini tasvirlayotganda buyumlarning hajmi va shakli asosida ish yuritishi taqozo etiladi. Bunda talaba buyumga tushayotgan yorug', soya, yarim soyalarni, yengil chiziqlar bilan bir tekisda chizishga va chiziqiar tortishda ularni dona–dona bajarishga e'tibor berishi kerak. Buyumga yorug'lik qanchalik tik tushsa, uning tasviri shunchalik yaqqol ko'rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda urilib, bajarilayotgan tasvir xiraroq bo'lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib), ikkinchisiga va uchinchisiga tiishishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a). yorug'lik;
- b). soya;
- s). yarim soya;
- d). aks;
- e). yaltiroqlik.

Yorug'lik– quyosh yoki sun'iy yoritgichning buyum yuzasiga tik tushuvchi nuridir.

Soya – buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoni (teskarisi), yorug'lik nurlari tushmagan yeri.



9, 10- rasmlar.

Bunday soyalar **shaxsiy soya** deb ham yuritiladi. Tasvirlashda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi.


Bunday soyalar buyum tekisligiga, (stol, pol, yer va hokazo) hamda buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumga qiyaroq

tushuvchi yorug'lik, ularda **yarim soyalarni** tashkil etadi. Yarim soyalar, asosan, yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismda joylashadi. Shuning—uchun soyalar bir xil to'q tusda bo'lmaydi. Buyumlarning hajmlarini soya va yarim soyalar orqaligina to'g'ri tasvirlash mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib, boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi.

Aks yorug'lik predmetlarning bir—biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Lekin hech —qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan koichli bo'lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik** hosil bo'ladi. Bu holat shisha, chinni, temir, sopol va yorug'likni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa ko'pgina buyumlarda kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziqlar tasvirlanayotgan buyumning xarakteri va yorug'likning tushish yo'nalishi bo'yicha dona—dona, aniq bo'lishi kerak. Bunday ishlangan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatadi. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuqroq, bir—biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak.




11-rasm. 1-yorug'lik. 2-yaltiroqlik. 3-yarim soya. 4-shaxsiy soya. 5-refleks. 6-tushuvchi soya.

Geometrik shakllarni tasvirlashda ularning tuslariga e'tibor berish darkor. Oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2– va 3– qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda tasvirlanadi. Bu, o'z navbatida, buyumni haqqoniy (fazoyiy perspektiva qonuniga asosan) tasvirlashda g'oyat muhimdir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, buyumning hajmi asosida ishlash – buyumni to'laqonli hajmli tasvirlash omilidir. Pala–partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi. 12,13, 14–rasmlar.

Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma–ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berish – buyumni to'g'ri chizishda katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni chizishda chiziq tortish ellips shaklida bajariladi. 15– rasm. Sferik buyumning eng quyuq soya joylari uning ekvatoriga yaqinlashgan joyida bo'ladi. 16–17–18–rasmlar.


Shuni doimo yodda tutish kerakki, shakllarning yorug' va soya uchrashgan(yaqinlashgan) qismida soyalar to`q bo`ladi.



12-rasm.

Yorug'-soya qonu-niyatlari tasvir-lashchda anqlikni talab etadi. Fizik olimlarning tadqi-qotlari shuni ko'rsat-diki, yorug'lik buyum va narsalarga rna'lum hajmlar qonuniyati asosida tushadi. Talaba quyida- gilarni doimo o'z tasviriy faoli- yatida bilishi va qo'llashi lozim:

a). yorug'hk manbaiga yaqin turgan buyumda yorug' va soyalar har doim kuchlidir; aksincha, buyum yorug'lik manбайдan uzoqlashgan sari, soya – yorug' kuchlari ham umumiy lashib,xira ko'rinadi. Buyumlar tasvirda aniq bo'lishi uchun yorug'lik manbaiga yaqin turganlarini keskin yorug' soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlarni esa umumiy tarzda chizish tavsiya etiladi;



13-rasm.

b) buyumning turni to'sishi natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi soya har doim shu buyumning o'z soyasiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni yorug'likning to'silishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq tasvirlash kerak.


Yuqoridagilardan ko'rinib turib– diki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituv– chisi tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, uning nazariy tomonlariga ham e'tibor berishi lozim.

O'tmishda usta rassomlar tabiat– dagi yorug'–soya qonuniyatini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvafaqqiyat bilan qo'llay bilganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi shunday deydi: «To'q tusli buyumda hosil bo'luvchi aks yorug'lik doimo ochroq tUSDagiga nisbatan aniq va yaqqol ko'rinadi».

Ba'zi tasviriy san'at amaliyotchilarining fikricha, tasviriy faoliyatdagi ilmiy asoslar talabaning ijodiy yo'nalishiga to'sqinlik qilar va salbiy ta'sir ko'rsatar emish. Ularning ta'kidlashicha, agar talaba tasvirlashning ilmiy jihatlari asosida ma'lum vazifani bajarsa, tasvir ham bir xil darajada bo'lar ekan. Ushbu tushuncha noto'g'ri ekanligini quyidagi misolda ko'rsatib o'taylik. Talabalar natyurmort qalamtasvirini boshlang'ich bosqichidan to oxirigacha pedagog nazoratida, uning bevosita ko'rsatmalari orqali bajarsalar ham, vazifa tugal holatga kelganda har bir ish chizish uslubi va emotsional jihatlari bilan bir–biridan keskin farq qiladi.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda ayrim pedagoglar qalamtasvirning ilmiy asoslariga, perspektiva qonunlariga, plastik anatomiya va yorug'–soyalar nazariyasiga yetarli e'tibor bermaydilar.

Oqibatda talabalar ushbu qonun–qoidalardan bexabar qoladilar va amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi.



14-rasm.

Oliy o'quv yurti o'qituvchisining asosiy vazifasi – talabalarga mutaxassislik fanlari: rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va aynigsa, qalamtasvir borasida amaliy hamda nazariy bilim berib, umumta'lim maktablari uchun yuqori malakali mutaxassis o'qituvchilar tayyorlashdir.

II–BOB. Tasviriy san`atning janrlari

Tasviriy san'atda manzara, maishiy, natyurmort, portret, tarixiy, animal, (ya'ni hayvonot olamiga ovd) afsonaviy, dengiznavisliq nyu, interer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga karab belgilanadi. Masalan, asarlarda odam rasmi ishlansa, ular "Portret", tabiat va shaxar ko`rinishlari tasvirlansa, "Manzara", turmush va mexnat jarayonlari tasvirlansa "Maishiy" janrga xos bo`ladi. Shuningdeq tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janr, hayvonlarni tasvirlash animal janr deb yuritiladi. "Animal" janri lotincha "anima" so`zidan kelib chiqqan bo`lib hayvon ma'nosini anglatadi. "Batal" janri esa frantsuzcha "batay" so`zidan kelib chiqqan bo`lib, jang, "nyu" janri frantsuzcha yalangoch ma'nosidagi so`zdan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar bir paytning o`zida ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo`lishi mumkin. Masalan, portret va nyu, dengiznavisliq interer, manzara va xokazolar.

Xar bir janr o`z o`rnida yana bir qancha janrlarga bo`linishi mumkin. Masalan, manzara janrini tabiat manzarasi janri, shaxar manzarasi janri, industrial–sanoat binolari ko`rinishi manzarasi janriga yoki portret janrini tantanavorliq ishqiy, guruhli janrlarga bo`lish mumkin.

Vaqt o`tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus olishi ham mumkin. Masalan, manzara janridan dengiznavisliq tarixiy janrdan batal, manzara janridan interer ajralib chiqqan.

Manzara janri. Tasviriy san'atda tabiat, shaxar, industrial–sanoat, interer ko`rinishlarining tasvirlanishi manzara janriga taalluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning Xaqiqiy, ya'ni hayotiy ko`rinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodatangan bo`ladi. Ba'zan bu ikki har bir asarda kuzatilishi xam mumkin. Manzara janrining paydo bo`lishi juda uzoklarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollaridagi qadimgi arxeologik qazilmalar misolida ko`rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvatgi davrlarga oid Beni–Xasandagi qabr tohda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mustaqil ravishda Xitoyda VI

asrda paydo bo'lgan bo'lsa, Evropa san'atida Uyg'onish davrida ilmiy negizda, ya'ni chizikli va xavo (rang) perspektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil manzara bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmanddariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, U.Tansiqboev, I. K Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni alohida tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakllaridai biri bu interer xisoblanadi. Interer binolarning ichkiismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z ishlarida intererni aql bovar qilmaydigan darajada aniklik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirley olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. Bu ulug' rassom o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "Tulqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviriy san'atida munosib urinni egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va xokazolar. Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va Xaykaltaroshlikda qo'llaniladi. Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning relef turida ishlatiladi. Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.

Natyurmort janri. "Natyurmort" so'zi frantsuzcha bo'lib "jonsiz narsalar (natura)" ma'nosini anglatadi. Bu janrdan asosan rangtasvir va grafika asarlarida

keng qo'llaniladi. Tasviriy san'atning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar, qushlar, baliklar, oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks etgiriladi. Natyurmort mustaqil janr sifatida XV—XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo'lgan.

Natyurmortning ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort bo'lsa, ikkinchisi yordamchi yoki to'ldiruvchi natyurmortdir. Natyurmortning birinchi turida faqat natyurmort tasvirlansa, ikkinchi turida natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qo'shimcha detal sifatida ishlangan bo'ladi. Natyurmortning xarakterli hususiyati — uning hayotdan, go'zallikdan zavqlanishga yo'naltirilganligidadir. Bu vazifani rassom gullar, meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli ko'rinish va ranglarda ifodalab, kishilarniig his-hayajonini uyg'otish orqali bajaradi.

Natyurmortning turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida ma'lumotlar berishi ham o'ta muhimdir.

Mutaxassislar Natyurmortning kishilarga ikki xil ta'sirini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni go'zallikka oshno etib, ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq-ovqatlar tasviridan tashkil topgan bo'lsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaha baxsh etadi. Ikkinchisida natyurmort o'zi hakida emas, balki u bilan bog'liq shaxs uning egasi xaqida ma'lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmas-da, biroq uning didi, ijtimoiy mavqei ifodalanadi.

Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi xam mumkin.

Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J.Sharden, F.Snayders, I.Mashkov, P.Konchalovskiy, L.Salimjonovalar katta shuxrat qozonganlar.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, mehnati, kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularda ko'proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar nafaqat hozirgi kun odamlarining balki utmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma'lumot beradi.

Tasviriy san'atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bo'lgan. Bu janr o'z mazmuni jixatdan ancha murakkab bo'lib, natyurmort, manzara, animal va

boshqa janrlar bilan bog`liq tarzda yaratiladi. Maishiy janr ko`proq rangtasvirda, ba'zan esa grafika va haykaltaroshlikda xam ishlatiladi.

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixda nihoyatda ko`p bo`lib, ulardan eng mashxurlari sifatida turli zamon va makonlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, I. Inog`omov, J. Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kent va boshqalarni tilga olib o`tish mumkin.

Tarixiy janr. Rangtasvirning bu janrida insoniyat tarixidagi muxim voqealar va qaxramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom bironta tarixiy voqealar ko`rinishini tasvirlash uchun avvalo o`sha voqeaning boshqa tarixiy voqealar orasidagi o`rni va muximligini anglab etishi kerak bo`ladi. So`ngra u usha voqea sodir bo`lgan davr xaqidagi adabiy manbalarni, tarixiy me'morchilik obidalari xamda u erdan topilgan arxeologik topilmalarni o`rganadi, ular asosida qoralama va ranglamalar yaratadi. Mavzuga aloqador tarixchilar bilan suxbatlashish voqea mazmuni xamda yaratiladigan asar detallarini aniklashtirishga yordam beradi.

Batal janri. Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush jarayonlarini zavq-shavq, ko`tarinkilik, qaxramonlik kabi tuyg`ular bilan ifodalashga harakat kiladilar. Bunday asarlarda ko`proq vatanparvarlik g`oyalari ilgari suriladi. Ularda nafaqat jang ko`rinishlari, balki harbiylarning jangdan tashqari vaqtdagi turmushi ham ifodalanishi mumkin.

Jang manzaralarini tasvirlash qadimdan ma'lum bo`lsa-da, uning san'atda ifodalanishi Sharkda XV—XVI asrlarda keng tarqalgan. Ayniqsa, u Sharq miniatyura rangtasvirida alohida o`rinni egallaydi. Mazkur janr XV—XVIII asrlarda Evropa rangtasvirida xam rivoj topdi.

Tarixiy va batal janrlarda samarali ijod qilgan rassomlar katoriga Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzahhib, D.Velaskes, Q Bryullov, P.Pikasso, P.Rubens, F.Goyya, V.Surikov, A.Deyneka, M.Nabiev, R.Choriev kabilarni kiritish mumkin.

Animal janr. Animal lotincha "anima" so`zidan kelib chikdan bo`lib, "jonlantirish" demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Hayvon va qushlarning rasmini ishlovchi rassomlarni animalist rassomlar deb

yuritishadi. Bunday rassomlarning tabiatga, uning ajralmas kismi bo'lgan hayvonot olamiga muxabbati kuchli bo'ladi. Animal janr tasviriy san'atning mustaqil janri bo'lsada, hayvonlar tasviri ba'zan maishiy, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.

Hayvonlarni tasvirlashga kadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, misrliklar ko'plab ilohlarini turli hayvonlar kiyofasida tasavvur etishgan. Ularni sfinkslarda odam, turli hayvonlar va qushlar ko'rinishida tasvirlaganlar. Bu ulkan xaykallarning tanasi odam, boshi biror yirtqich hayvon yoki qush ko'rinishida bo'lgan. O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvatgi VII— V asrlarda Afrasiyob freska va xaykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvohi bo'lamiz.

Sharq miniatyura ranggasviri asarlarida xam hayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko'p tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning "Tuyalar jangi" asari Rizo Abbosiyning "Cho'pon" miniatyurasi xam fikrimizning dalilidir.

XV—XVI asr Evropada Uygonish davri rangtasvirida APizanello, Leonardo da Vinchi, ADyurerlar hayvonlar tasvirini aniq, realistik tarzda ifodalashga harakat qilganlar.

XVII asrga kelib Gollandiyada hayvonlarni tasvirlash alohida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va xaykaltaroshlardan P.Klodt, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnetsovlar xam ijod qilishib, betakror san'at asarlarini yaratdilar.

Afsonaviy janr. Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan hayolan uylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea xamda xodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan kanotli farishtalar, xuru g'ilmonlar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot "kentavrlar", yarmi ayol yarmi baliq suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir ko'zli baxaybat devlar va xokazolar tasvirlanadi.

Afsonaviy janr tasviriy san'atning xamma turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikada keng qo'llanadi.

Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi Sulton Muxammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnetsovlarni kiritish mumkin.

Dengiznavislik janri (Marinizm). Marina frantsuzcha soʻz boʻlib, dengiz koʻrinishi maʼnosini bildiradi. Marinizm — yaʼni dengiz–navislik rangtasvirning turi sifatida Evropa sanʼatida alohida urinni egallaydi. Dengiz, dengiz xayotidagi muxim voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda ushbu yunalish muhim ahamiyat kasb qiladi.

Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.de Vliger, H.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bogʻliq baliqchilar hayotini xaqqoniy aks ettirishda samarali ijod qildilar. Keyinchalik oyna janrda K.Verne, U.Terner, H.Mesdag, I.Ayvazovski kabi rassomlar yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdilar. Ushbu janrda Oʻzbekistonlik muyqalam ustalaridan F.Madgazin, U.Tansiqboev, A.Muminovlar xam barakali ijod qilishgan.

Dengiz koʻrinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy janrdagi suvratlarning orqa planida xam tasvirlanishi mumkin.

Nyu janri. "Nyu" soʻzi frantsuz tilidan olingan boʻlib, yalangoch degan maʼnoni anglatadi. "Nyu" portret janridan ajralib chikib, mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar koʻpincha yalangoch ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni koʻrsatmokchi boʻladilar. "Nyu" portret janri kabi yakka yoki koʻp figurali boʻlishi mumkin. U tasviriy sanʼatning barcha turlari (rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika)da keng qoʻllaniladi.

Interer janri. Bu janrda binolarning ichki koʻrinishi, foe, yulak, xonalarning oʻziga xos jihatlari, ulardagi jihozlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi.

2.1. Portret janri

"Portret" frantsuzcha "portrait" soʻzidan olingan boʻlib, kishilarning chehrasini xuddi oʻziga oʻxshatib tasvirlash maʼnosini bildiradi. Portretda kishilar yakka, ikki kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlanishi mumkin. Portretda odamlarning faqat boshi, baʼzan ular beligacha yoki buyi–basti bilan tasvirlanishi mumkin. portret tasviriy sanʼatning uchala turida ham qoʻllaniladi. Portret oʻz xarakteri jihatdan monumental, miniatyurali, dastgohli, ishqiy, hajviy boʻladi.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili xam keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi oʻz aksiga karab yaratadi.

Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsning fotosidan, shuningdek, arxiv materiali yoki adabiy tasviridan, baʼzan xatgo vafot etgan marxumning bosh chanogʻini oʻrganish asosida xam yaratiladi.

Portretchi asarning oʻz qaxramoni tashqi qiyofasiga oʻxshash boʻlishiga erishishdan tashqari uning millati, kasbi, tabaqasini xam ifodalashga harakat qiladi. Shuningdek, portretda shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, maʼnaviy dunyosi xam tasvirlanishi kerak.

Dastlabki portretlar qadimga Yunonistonda miloddan avvalgi VII–V asrlarda yaratilgan. Portret janri oʻrta asrlar Sharq miniatyurachilari va Evropa ranggasvirchilari va xaykaltaroshlari ijodida xam keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, XVIII—XIX asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I Repin, XX asr oʻzbek rassomlaridan A.Abdullaev, Ch.Axmarov, V.Kaydalov kabilar samarali ijod qildilar.

2.2. Nurniy chol portretini chizish

Talaba gips bo'laklari rasmini chizishdan tirik odam boshi rasmini chizishga o'tar ekan, o'z ishida juda ko'p qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar shundan iboratki, talaba avval chizgan ganch modeli doimiy, muqim holatda turgan; boshining yoritilishi, soya, yarim soya va tushayotgan soya va tus berish kuchi, rasm chizishning hamma seanslari davomida o'zgarmay turgan. Tirik bosh esa doim harakatda bo'ladi: naturachi qimirlab ketsa, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Undan tashqari tirik bosh tasviri bilan ganch boshni tasvirlashni taqqoslashdagi asosiy murakkablik, shundan iboratki, bu o'rinda rasm chizuvchi ko'p narsani, o'zi mustaqil hal qilishga, o'z idroki va ijodiy qobiliyatini faollashtirishga majbur bo'ladi. Gips namunalarda talaba shaklni umumiy ko'rgan. Ushbu haykal namunasini yaratgan buyuk usta ikir–chikir, may–da–chuydalarni chetga chiqarib tashlab, e'tiborini asosiy narsaga qaratgan. Tirik bosh rasmini chizuvchi, endi ularni o'zi amalga oshirishi, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata bilishi kerak bo'ladi.

Tirik bosh shaklini tasvirlayotib, unga tus berishda ham murakkablik tug'iladi. Ganch bosh materialining tus va fakturasi ham bir xil bo'lgan. Yorqin va bo'g'iq joylardagi tus kuchi o'rtasidagi farq shaklning u yoki bu yuzasi qanday yoritilganligiga bog'liqdir. Tirik naturadan chizishda shaklga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko'zlari, yonoq va lablari har xil tusda bo'ladi. Yonoq, lablarning qizg'ish tusi bir xil yoritilsa–da, sal bo'g'iqroq tuyuladi. Tirik bosh yuzasining turli rangda bo'lishi shaklning o'zini ko'rishni qiyinlashtiradi, rasm chizuvchini shaklni tasvirlash o'rniga, yorqin va bo'g'iq rang dog'larini ko'rish va undan nusxa ko'chirish, ba'zan esa naturada yo'q narsalarni ham o'ylab topishga majbur qiladi.

XVIII–XIX asrlarning klassik badiiy akademiya ta'lim tizimida, odamning tirik boshini chizishni maxsus o'rgatishga, lozim darajada e'tibor berilmagan; Ganch bosh rasmini chizishdan ganch haykal rasmini, undan so'ng esa yalang'och tirik odam qomatini chizishga o'tilgan. Rassomning ganch boshni chizishda olgan bilim va malakasi tirik bosh va portret chizish uchun yetarli, deb hisoblangan.

Bizning badiiy ta'lim tizimimiz ganch bosh rasmini chizishda bosh shakli qurilishining hamma qonuniyatlari va xususiyatlarini to'liq o'rganishni talab etadi. Chunki tirik boshning plastik xarakteristikasi, asosiy mushak va bosh suyaklarining, shuningdek, mimik mushaklar va kalla suyagi, qurilishining ko'zdan yashirin boshqa xususiyatlariga ham bog'liqdir. Talabalar ganch modellar rasmini chizganida uning dastlabki asoslarinigina o'zlashtiradilar. Tirik bosh shaklini tasvirlash uchun esa ular yana qator qonuniyatlarni o'zlashtirishlari zarur.

Yuqorida aytilganidek, rassom bosh shakli qurilishi qonuniyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi, natura uning butun e'tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo'rqadi va bu natura qurilishining qonuniyatlarini idrok etolmaydi, binobarin, ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom, ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilim yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'rtib chiqqan joylari nimaga asoslanganligini bilishi lozim.

A.Dyurer yozganidek: *agar senda haqiqiy asos bo'lmasa, qo'ling erkinlikka erishgani bilan bari bir, hech qanday yaxshi narsa qilishga erisholmaysan. Haqiqiy bilim tufayli esa ancha dadil bo'lasan va ishni mukammalroq bajarasan.*

Rassom tirik bosh shaklini chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

- 1) hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishiga erishish;
- 2) rasmda kalla suyagi va mushaklar mutanosibligiga erishish;
- 3) inson portretining individual xususiyatlarini ochish.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun rassom shakl qurilishining individual xususiyatlarini, u yoki bu detaining joylashishini chuqur sezishi, oldindan esa bu qonuniyatlarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun tirik bosh rasmini chizishga kirishishdan oldin, kalla suyagi va uning mushak bilan qoplanishi xususiyatlarini asoslovchi anatomiya va boshqa fanlar qonuniyatlarini o'rganish darkor.

Biz "O'quv rasmining ilmiy asoslarini bilish" deganimizda, eng avvalo, har bir rasm chizuvchidan, ilmiy qoidalarni bajarish talab qilinishini nazarda tutamiz.

Ma– salan, talabani rasm chizishga o'rgatar ekanmiz, uni perspektiva qoidalarini va qonuniyatlariga aniq rioya qilishga majbur qilarniz. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi tuzilishi va mushaklarning joylanish qonuniyatlariga, rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli induvidual tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklar, paylarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriy san'atning ilmiy qoidalaridir. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin.

Yuqorida o'quv akademik rasmning ilmiy asoslari haqida ko'p gapirildi. Ushbu mavzu bundan keyin ham davom ettiriladi. Akademik rasm chizish mohiyati ham shundadir. Ushbu tizimda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ilmiy bilimi, uzluksiz oshib boradi, ta'lim uslubi esa ilmiy yo'nalishda olib boriladi. O'tmishda turli aka– demiyalarning gullab–yashnash davrida bunga qat'iy rioya qilingan.

Mazkur darslik ham akademik yo'nalishga asoslangan, shuning uchun ham, biz "o'quv rasmi" emas, balki "akademik rasm" atamasini ko'proq qo'llaymiz. O'quv rasmi modernistlarda ham bor, ular ham boshlovchi rassomlarga o'z san'atini o'rgatadilar va ularni shunga tayyorlaydilar. "O'quv rasmi" tushunchasi san'atdagi har qanday tendensiya va qarashlarni qamrab olishi mumkin. "Akademik rasm" tushunchasi realistlik san'at prinsiplari va uslublarini nazarda tutadiki, unda har bir vazifa ilmiy–nazariy asosga ega bo'ladi, ta'lim esa ma'lum tizimga bo'ysunadi.

Akademik ta'lim tizimi g'arbiy Yevropa, rus va o'zbek milliy realistlik san'ati– ning eng yaxshi an'alariga, hozirgi zamon pedagogika va psixologiyasiga asoslanadi. Akademik ta'lim yosh rassom oldida borliq hodisalarining go'zalligi va betakrorligini namoyon etishda moddiy, borliqning ob'ektiv qonunlarini ochadi. Bularning hammasi tabiatning eng go'zal mahsuli – inson qiyofasi, xususan, odam boshini tasvirlashga ham bevosita aloqadordir.

Tabiiyki, talaba dastavval, odam boshi shakli qurilishi sxemasini tushunishi va eslab qolishi, ularni amaliyotda qo'llashi kerak. Taklif qilinadigan sxemalar va shaklni tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini chizish, hatto, o'quv paytida

ham ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham u keyinchalik yosh rassomga o'z shaxsiy ish usullarini topish imkonini beradi. Biroq har qanday holda ham, dastlab, bosh shaklining konstruktiv–anatomik tuzilishini, ya'ni odam boshi anatomiyasini mukammal o'rganish kerak.

Talaba plastik anatomiyani o'rganar ekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, filer yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib etishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va umumlashmalar chiqarib, ba'zi mushak shakllarining o'zgarishi qoidalari va me'yorlarini bilib boradi. Insonni bunday chuqur ilmiy o'rganishda Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning rasmlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Leonardo da Vinchi rasmlarida biz nafaqat tashqi mushaklarni, balki chuqur paylar, kemirchak(tog'ay)larni ham ko'ramiz. O'tmishdagi buyuk ustalar inson tanasining va bosh tuzilishining anatomik qurilishini diqqat bilan o'rganganlar va suyaklar, mushaklar, paylarning, jumladan, angiologiyaning (qon tomirlarining joylashishini o'rganuvchi fan) asosiy xususiyatlarini esjab qolganlar. Bu bilim rassomlarni kasb mahorati cho'qqilariga yetaklagan.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning hammasi, naturadan rasm chizishda chuqur ilmiy bilim talab etilishidan dalolatdir. Talaba naturani o'rgana borib, jiddiy ilmiy ma'lumotlarga tayanib, suyak va mushaklar qurilishining umumiy uyg'unlashuvini tushuna boshlaydi.

Rasm kerak

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang'ich kurslardan boshlab qalamtasvir rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik kabi mutaxassislik fanlarining asosi bo'lgan boshlang'ich o'quv qalamtasviri mashg'ulotlari ham amaliy, ham ilmiy–nazariy jihatdan yaxshi o'qitilishi shart.

O'tmish tarixdan aniq ma'lumki, qadimda buyuk rassomlar tasvirlashning ilmiy asoslarini qo'llash natijasida, katta yutuqlarga erishganlar. Florensiya maktabi rassomlari, tasviriy san'atni ilm qatoriga qo'yganlar va natijada, bu yerdan buyuk tasviriy san'at ustalari yetishib chiqqan.

Buyumlarni o'ziga qarab tasvirlash – tasviriy faoliyatning alifbosidir. Bu umumta'lim maktabi boshlang'ich sinflari o'quvchilaridan tortib, to oliy o'quv yurtlari talabalarigacha dasturilamal bo'lishi kerak. Yoshlar narsani o'ziga qarab chizish davomida tabiatdagi voqea–hodisalar, shakllarning konstruktiv tuzilishlarini tasvirlash qonun–qoidalarini o'rganadilar. Bularni talabalarga o'qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan– ilmiylik prinsipi yetakchi o`rin egallashi lozim.

Men o`zimning kurs ishimda qalamtasvir haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim, ishlash usullarini misollar keltirish bilan yoritdim. Shu bilan birga qalamda ishlashga doir bir nechta misollarni ko`rsatdim. Men o`z kurs ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Islom Karimov YUKSAK MA`NAVIYAT – YINGILMAS KUCH Toshkent “Ma`naviyat” 2008
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni. –T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. B.Boymetov Qalamtasvir T–2006
6. B.Z. Azimova natyurmort tuzish va tasvirlash T–1984
7. S. Abdurasulov B.Boymetov N.Tolipov Tasviriy san`at T–2006
8. S. Abdurasulov B.Boymetov Chizmatasvir T–2004
9. Ten N.D. gips modellarining rasmi T–1994
10. Ростовцев Н.Н. Учебный рисунок М–1984